


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. **Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
2. **Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
3. **Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
4. **Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
5. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IROTTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
6. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOIIY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
7. **Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
8. **Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSHUR MISOLIDA.....64
9. **Қадамбаев III.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
10. **Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

1. **Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
2. **Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

PEDAGOGIKA

Urganch davlat pedagogika instituti
p.f.f.d. (PhD), dots **Sh.E.Yakubova**

**“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI
KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”**



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21980104>

Annotatsiya

Mazkur maqolada talaba qizlarning ijtimoiy faollik kompetentligi tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berilgan, uning tarkibiy komponentlari, mezon va ko'rsatkichlari, shuningdek shakllanish darajalari tahlil qilingan. Muallif oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni, jumladan gender xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu jarayonning nazariy-metodologik asoslarini yoritadi. Tadqiqotda ijtimoiy faollik kompetentligi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, kommunikativ va refleksiv-baholash komponentlaridan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida talqin etiladi. Olingan xulosalar oliy ta'lim pedagogikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va talabalar bilan ishlash amaliyoti uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, kompetentlik, talaba qizlar, pedagogik tuzilma, motivatsion komponent, kognitiv komponent, refleksiya, oliy ta'lim, tarbiya jarayoni, gender pedagogikasi.

Abstract

This article reveals the pedagogical essence of the concept of social activity competence of female students and analyzes its structural components, criteria, indicators, and levels of formation. The author examines the theoretical and methodological foundations of developing this competence in higher education institutions, taking into account gender-specific factors. Social activity competence is interpreted as an integral system consisting of motivational-value, cognitive, activity-practical, communicative, and reflexive-evaluative components. The findings have theoretical and practical significance for higher education pedagogy and educational work methodology.

Key words: social activity, competence, female students, pedagogical structure, motivational component, cognitive component, reflection, higher education, educational process, gender pedagogy.

KIRISH. Jahon ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, Prezidentning ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni, jumladan qizlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash borasidagi qator qarorlari ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilishini taqozo etadi.

Talaba qizlar oliy ta'lim tizimining muhim ijtimoiy guruhini tashkil etadi. Ularning kelajakda oila, mahalla, kasbiy jamoa va butun jamiyat hayotida faol, mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli fuqaro sifatida ishtirok etishi ko'p jihatdan aynan talabalik davrida shakllangan ijtimoiy faollik

kompetentligiga bog'liq. Shu bilan birga, an'anaviy qarashlar, oilaviy tarbiya xususiyatlari, mintaqaviy mentalitet kabi omillar talaba qizlarning ijtimoiy faolligini namoyon etishida o'ziga xos to'siqlar va imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Bu esa ushbu jarayonni maxsus pedagogik boshqaruv va ilmiy asoslangan yondashuv ostida tashkil etish zaruratini kuchaytiradi.

Ijtimoiy faollik kompetentligi muammosi pedagogika va psixologiya fanida turlicha talqin etilgan. Xususan, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn kabi rus psixologlari shaxsning ijtimoiy faolligini faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etgan bo'lsalar, chet el olimlaridan A. Bandura ijtimoiy faollikni ijtimoiy o'rganish nazariyasi doirasida, J. Raven esa kompetentlik tushunchasini "muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan xususiyatlar majmui" sifatida talqin qilgan.

O'zbek pedagogika fanida ham ushbu muammoning turli qirralari o'rganilgan. J.G'. Yo'ldoshev va S.A. Usmonov ta'lim jarayonida kompetentlik yondashuvining nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, O'.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik kompetentlik tuzilmasini tadqiq etgan. R.X. Djuraev, M.X. Toshpo'latov kabi olimlar talabalarning ijtimoiy-pedagogik faolligini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Shunga qaramay, aynan talaba qizlarning ijtimoiy faollik kompetentligini gender xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning pedagogik mohiyati va tuzilmasini yaxlit tizim sifatida o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar hozircha yetarli emas. Bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot mavzusini yoritishda quyidagi ilmiy-nazariy va empirik metodlardan foydalanildi: mavzuga oid falsafiy, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; tushunchalarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali "faollik", "ijtimoiy faollik", "kompetentlik", "ijtimoiy faollik kompetentligi" tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish; strukturaviy-funksional tahlil metodi yordamida ijtimoiy faollik kompetentligining tarkibiy komponentlarini ajratish va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash; modellashtirish metodi orqali kompetentlik tuzilmasining pedagogik modelini ishlab chiqish.

Nazariy tahlilni to'ldirish maqsadida bir qator oliy ta'lim muassasalari talaba qizlari orasida so'rovnoma (anketa so'rovi) va kuzatish metodlaridan foydalanildi, olingan dastlabki ma'lumotlar sifat va miqdor tahlili orqali umumlashtirildi. So'rovnomada talabalarning jamoat ishlariga munosabati, ijtimoiy tashabbuskorlik darajasi, o'zini-o'zi baholash ko'rsatkichlari, kommunikativ faollik xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalarini talqin qilishda tizimli-yaxlit va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga, shuningdek kompetentsiyaviy yondashuv tamoyillariga tayanildi.

NATIJALAR VA TAHLIL. Ijtimoiy faollik kompetentligi tushunchasining mohiyati. "Faollik" tushunchasi falsafada shaxsning ob'ektiv borliqqa faol ta'sir ko'rsatish, uni o'zgartirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Psixologik nuqtai nazardan faollik — shaxsning ichki ehtiyoj va motivlari asosida yuzaga keluvchi, tashqi muhitga qaratilgan xatti-harakatlar majmuidir. "Ijtimoiy faollik" esa shaxsning jamiyat hayotida, ijtimoiy munosabatlar tizimida ongli, tashabbuskor va mas'uliyatli tarzda ishtirok etish xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

"Kompetentlik" tushunchasi zamonaviy pedagogikada shaxsning muayyan faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni birgalikda, integratsiyalashgan holda amalda qo'llay olish qobiliyati sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan "ijtimoiy faollik kompetentligi" — shaxsning ijtimoiy muhitda mustaqil va tashabbuskorona faoliyat yuritishga, jamoat ishlarida faol ishtirok etishga, ijtimoiy muammolarni hal qilishga tayyorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlarning yig'indisi sifatida ta'riflanishi mumkin.

Talaba qizlar nisbatida ushbu tushuncha o'ziga xos mazmun kasb etadi. Talaba qizlarning ijtimoiy faollik kompetentligi - bu ularning oliy ta'lim muassasasi, kelajakdagi kasbiy jamoa, oila va mahalla miqyosida ijtimoiy foydali faoliyatga tashabbuskorlik bilan qo'shilishi, o'z fikr-mulohazalarini erkin va asoslangan holda bayon eta olishi, boshqalar bilan samarali muloqot qura olishi hamda o'z faoliyatini tahlil qilib, unga tanqidiy baho bera olish qobiliyatidir. Bunda oilaviy tarbiya an'analari, mintaqaviy ijtimoiy-madaniy muhit va oliy ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ish tizimi muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy faollik kompetentligining tarkibiy tuzilmasi - O'tkazilgan nazariy tahlil talaba qizlar ijtimoiy faollik kompetentligining beshta o'zaro bog'liq komponentdan tashkil topgan yaxlit tizim ekanligini ko'rsatdi:

1) Motivatsion-qadriyatli komponent — ijtimoiy faoliyatga ichki ehtiyoj, qiziqish, jamiyat foydasi uchun xizmat qilishga bo'lgan intilish, fuqarolik burchi va mas'uliyat hissi, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg'unligini ifodalaydi. Bu komponent kompetentlikning “dvigateli” hisoblanadi, chunki barcha keyingi harakatlar aynan motivatsiya asosida yuzaga keladi.

2) Kognitiv komponent — jamiyat, uning ijtimoiy tuzilishi, fuqarolik huquq va majburiyatlari, jamoat tashkilotlari faoliyati, muloqot va liderlik asoslari to'g'risidagi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu bilimlar talaba qizga ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri baholash va oqilona qaror qabul qilish imkonini beradi.

3) Faoliyatli-amaliy komponent — egallangan bilim va motivlarning real ijtimoiy faoliyatda namoyon bo'lishi, ya'ni jamoat ishlarida, ko'ngillilik (volontyorlik) harakatida, talabalar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida, ijtimoiy loyihalarda bevosita ishtirok etish ko'nikmalarini anglatadi.

4) Kommunikativ komponent — turli ijtimoiy guruhlar, jamoalar bilan samarali muloqot qura olish, o'z nuqtai nazarini asoslab bera olish, hamkorlikda ishlash, nizolarni konstruktiv hal qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Talaba qizlar uchun bu komponent ayniqsa muhim, chunki muloqot madaniyati ularning ijtimoiy faoliyatdagi ishonchliligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

5) Refleksiv-baholash komponenti — shaxsning o'z ijtimoiy faoliyati natijalarini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, erishilgan yutuq va kamchiliklarni ob'ektiv baholash, kelgusi faoliyatini shu asosda takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu komponent kompetentlikning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi “ichki mexanizm” vazifasini bajaradi.

Ushbu komponentlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning har biri yetarli darajada shakllanmasa, umumiy kompetentlik ham to'liq namoyon bo'lmaydi. Masalan, yuqori kognitiv bilimga ega, ammo motivatsiyasi past bo'lgan talaba qiz o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga intilmasligi mumkin; aksincha, motivatsiyasi yuqori, ammo zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan talaba esa faoliyatda samarasiz bo'lishi mumkin.

Shakllanish darajalari va mezonlari - O'tkazilgan tahlil va so'rovnoma natijalari asosida talaba qizlar ijtimoiy faollik kompetentligining uchta shartli darajasi ajratildi:

Quyi (passiv) daraja — ijtimoiy faoliyatga qiziqish barqaror emas, jamoat ishlarida ishtirok tashqi majburlash asosida amalga oshiriladi, kommunikativ ko'nikmalar sust rivojlangan, o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati yetarli emas.

O'rta (situativ-faol) daraja — ijtimoiy faoliyatga qiziqish mavjud, ammo u barqaror tashabbuskorlikka aylanmagan, ko'pincha tashqi rag'batlantirish yoki qulay vaziyat mavjud bo'lgandagina namoyon bo'ladi, asosiy bilim va ko'nikmalar shakllangan, biroq ularni mustaqil qo'llash ko'nikmasi yetarli darajada emas.

Yuqori (ijodiy-tashabbuskor) daraja — ijtimoiy faoliyatga barqaror ichki ehtiyoj mavjud, talaba qiz mustaqil tashabbus ko'rsatadi, jamoat ishlarida yetakchilik qiladi, o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib, uni takomillashtirib boradi, boshqalarni ham ijtimoiy faoliyatga jalb qila oladi.

Mazkur darajalarni aniqlash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi: ijtimoiy faoliyatga munosabat (motivatsion mezon); ijtimoiy-huquqiy bilimlar darajasi (kognitiv mezon); jamoat ishlaridagi bevosita ishtirok darajasi va uning barqarorligi (faoliyat mezon); muloqot madaniyati va hamkorlik ko'nikmalari (kommunikativ mezon); o'z-o'zini tahlil qilish va baholash qobiliyati (refleksiv mezon).

MUHOKAMA. Olingan natijalar bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning qarashlari bilan qisman uyg'unlashadi, ayni paytda ularni gender kontekstida to'ldiradi. Xususan, J. Raven kompetentlikni “vaziyatga bog'liq, motivatsion asosga ega xususiyat” sifatida ta'riflagan bo'lsa, ushbu tadqiqot natijalari ham motivatsion-qadriyatli komponentning yetakchi o'rin tutishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O'Q. Tolipov va M. Usmonboyevaning pedagogik kompetentlik tuzilmasiga oid ishlarida qayd etilgan komponentlar tizimi bilan taqqoslaganda, talaba qizlar ijtimoiy faollik kompetentligi tuzilmasida kommunikativ komponentning alohida ajratilishi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi, chunki aynan muloqot madaniyati qizlarning ijtimoiy muhitda o'zini namoyon etishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, talaba qizlarning katta qismida kognitiv komponent (ijtimoiy-huquqiy bilimlar) nisbatan yaxshi shakllangan, biroq faoliyatli-amaliy komponent, ya'ni bilimlarni real ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasi yetarli darajada emas. Bu holat, bizningcha, oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilim berishga qaratilgan an'anaviy yondashuvning ustunlik qilishi, amaliy-tarbiyaviy tadbirlarning esa yetarlicha tizimli tashkil etilmaganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, ba'zi talaba qizlarda ijtimoiy faollikni namoyon etishga bo'lgan ichki tayyorlik mavjud bo'lsa-da, oilaviy tarbiyadagi an'anaviy cheklovlar, jamoat oldida so'zga chiqishdan tortinish, o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi kabi psixologik-pedagogik omillar bu tayyorlikning to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu boisdan, talaba qizlar ijtimoiy faollik kompetentligini rivojlantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: talabalar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatiga qizlarning faol jalb etilishini rag'batlantirish; treninglar, master-klasslar orqali muloqot va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish; ijtimoiy loyihalar va ko'ngillilik harakatlarida ishtirok etish uchun qulay institutsional shart-sharoit yaratish; talaba qizlarning shaxsiy yutuqlarini jamoatchilik e'tiroficha taqdim etish orqali ularning o'z-o'ziga ishonchini mustahkamlash; professor-o'qituvchilar va tyutorlar tomonidan individual pedagogik hamrohlik (mentorlik) tizimini yo'lga qo'yish.

Ta'kidlash joizki, talaba qizlarning ijtimoiy faollik kompetentligini rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich, uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo'lishi lozim. Bunda oilaviy tarbiya, akademik guruh muhiti, oliy ta'lim muassasasining umumiy tarbiyaviy siyosati va jamiyatning ijtimoiy-madaniy sharoitlari birgalikda hisobga olinishi zarur.

XULOSA. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, talaba qizlarning ijtimoiy faollik kompetentligi — bu ularning jamiyat hayotida ongli, tashabbuskor va mas'uliyatli ishtirok etishini ta'minlovchi, motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, kommunikativ va refleksiv-baholash komponentlaridan tashkil topgan yaxlit pedagogik hodisadir. Ushbu kompetentlikning shakllanishi uch darajali jarayon (quyi, o'rta, yuqori) sifatida namoyon bo'lib, uning samarali rivojlanishi maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar mavjudligiga bog'liq.

Talaba qizlar ijtimoiy faollik kompetentligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish, gender jihatdan muvozanatlashgan pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda talabalarning o'zini-o'zi boshqarish va ko'ngillilik faoliyatiga faol jalb etilishini ta'minlash orqali amalga oshirilishi lozim. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu kompetentlikni diagnostika qilish uchun standartlashgan metodika ishlab chiqish, shuningdek uni rivojlantirishning aniq pedagogik texnologiyasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Ta'limda kompetentlik yondashuvi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. — 184 b.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent: Fan, 2006. — 208 b.
3. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2009. — 176 b.
4. Toshpo'latov M.X. Talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik asoslari: ped. fan. nomz. ... diss. — Toshkent, 2011.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Qarshi: Nasaf, 2000. — 96 b.
6. Munavvarov A.M. Pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi, 1996. — 320 b.
7. Xoshimov X., Nishonova S. Pedagogika tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 2001. — 288 b.
8. G'ulomov A. Talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik omillari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2013. — 156 b.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorda ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].